

INNOVATOR

2026 / 01 (25) SON

MAGAZINE

Nazzar ilovasini
yuklab oling va
innovator
bilan tanishing!



Smartfon kamerasi
belgisi bo'lgan 
rasmga yo'naltiring



**“VENCHUR FONDLARI
FAOLIYATI”GA
BAG‘ISHLANADI**



**AZIZBEK
QURBONOV**

**CEO &
INVESTOR**

“IMKON VENTURES” –

QADRIYATLARGA MOS RAQAMLI TA’LIM MODELINI QO‘LLAB-QUVVATLAMOQDA

Yaqindagina Prezident huzurida o‘tkazilgan raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar hamda 2026-yilga mo‘ljallangan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan taqdimotda qayd etilishicha, so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va innovatsion ekotizimni shakllantirish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirildi. Xorijiy ekspertlar tahlillariga ko‘ra, 2024-2025-yillarda mamlakatimizdagi startap va venchur ekotizimining umumiy qiymati 3,9 milliard dollarga yetdi. Mahalliy startaplar soni 750 tadan oshdi. Hozirgi kunda 15 ta venchur fond faoliyat yuritmoqda. Venchur kapital hajmi esa 180 million dollardan oshdi.

O‘zbekistonda texnologik startaplar uchun faol tarzda investitsiya jalb etayotgan venchur kapital fondlari orasida “Imkon Ventures” nomi tez-tez tilga olinmoqda. Sarmoyasi taxminan 5 million dollarni tashkil etuvchi mazkur fond pre-seed (dastlabki rivojlanish) va seed (boshlang‘ich investitsiya) bosqichlaridagi loyihalarni investitsiya qiladi, regional bozorga chiqishni qo‘llab-quvvatlaydi hamda investitsiya yo‘nalishlarida moliya texnologiyalari (Fintech), sun‘iy intellekt (AI), dasturiy ta‘minot modellari (SaaS) va chuqur texnologik startaplar (Deep tech) kabi yuqori potensialli sohalarga e‘tibor beradi.

– Bu yo‘nalishlar istiqbolli bo‘lib, katta global bozor potensialiga ega deb hisoblanadi, – deydi “Startup Garage” asoschisi hamda “Imkon Ventures” boshqaruvchi hamkori Muhammad Xalil.

– Har bir startap uchun, odatda, 50,000 dollardan 150,000 dollargacha atrofida investitsiya ajratamiz. Ikki yil ichida 30 ga yaqin startaplarni moliyalashtirishni maqsad qilganmiz. Suhbatdoshimizning ta’kidlashicha, qo‘shimcha sarmoya sifatida yuqori potensialga ega kompaniyalar uchun keyingi – “follow-on” investitsiyalar ham ajratilishi mumkin.

“Imkon Ventures” asosiy e‘tiborni yuqori darajada o‘shish salohiyatiga ega texnologik loyihalarga yo‘naltiradi, shuningdek, MENA (Middle East & North Africa) va Markaziy Osiyo bozorlarini bog‘laydigan ko‘prik vazifasini ham bajarmoqda.



“DARSTOP” – ONLAYN TA’LIM PLATFORMASI

“DARSTOP” VENCHUR FONDINING INVESTITSIYA PORTFELIDAGI ASOSIY LOYIHALARDAN BIRI HISOBLANADI.

Suhbatdosh haqida: Shuhrat Fayziyev 1985-yilda Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on shahrida tug‘ilgan. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida Xalqaro munosabatlar yo‘nalishida bakalavr diplomini olgan. Green card dasturi bo‘yicha AQSHga ko‘chib o‘tgan va u yerda Axborot texnologiyalari bo‘yicha maxsus kurslarni tugatgan. Ayni paytda Pensilvaniya shtatida IT mutaxassis va o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritadi. Oilali, 2 nafar farzandi bor.

“Darstop” – AQSHda ro‘yxatdan o‘tgan startap bo‘lib, unga o‘zbekistonlik dasturchi va pedagog Shuhrat Fayziyev asos solgan. Loyihadan ko‘zlangan asosiy maqsad – dunyoning turli burchaklarida yashayotgan o‘zbek diasporasining ta’lim ehtiyojlarini qondirish hamda global miqyosda foydalanish mumkin bo‘lgan sifatli raqamli ta’lim infratuzilmasini yaratishdan iborat.

– Shuhrat, ayni paytda yangi ta’lim texnologiyalariga asoslangan loyihalar juda ko‘p. Jahon miqyosida, shu jumladan, AQSHda bunday dasturlar keragidan ortiq bo‘lsa kerak, nazarimda. Siz asos solgan ta’lim dasturining qanday o‘ziga xos jihatlari bor? Nima uchun aynan sizning loyihangiz “Imkon Ventures” e’tiborini tortgan, deb o‘ylaysiz?

– Eng avvalo, ta’lim sohasiga qiziqishim ortidan bu loyihaga qo‘l urdim. Sifatli ta’lim-tarbiyaning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi bizga oilaviy muhit ta’sirida, onam bergan o‘g‘itlar, u kishining pedagog sifatida bergan tarbiyasi orqali singdirilgan. Chunki onam ko‘p yillar maktabda matematika fanidan saboq bergan. Ta’lim va tarbiya o‘zaro bog‘liq holda va mukammal tarzda olib borilsagina, samarali natija berishi o‘rgatilgan. Onam har doim: “Ilmli va tarbiyali insonlar kelajakda, albatta, o‘z yo‘lini topadi, katta muvaffaqiyatlarga erishadi”, deb uqtirib kelganlar. Taniqli ma’rifatparvar yurtdoshimiz Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan chuqur ma’noli so‘zlari ham mazmun-mohiyati bilan aynan shu fikrlarni to‘ldiradi. Qayerda bo‘lmaylik, qanday muhitda yashamaylik, shu hikmatli so‘zlar quloqlarim ostida jaranglab turaveradi.

Bu men uchun ruhiy ehtiyoj, ma’naviy butunlik belgisi hisoblanadi. 2013-yilda Green card lotereyasi orqali Qo‘shma shtatlariga ko‘chib o‘tganimga, buni yanada chuqurroq his qildim. Ayniqsa, farzandim maktab yoshiga yetganida, AQSH ta’lim tizimidagi yutuqlar bilan bir qatorda ayrim nuqson va kamchiliklar bilan ham yuzma-yuz keldim. O‘shanda tarbiya borasidagi, ma’naviy ehtiyojlar masalasidagi bo‘shliqlar kuchliroq sezila boshladi.

AQSHda maktab ta’limida bir qator jiddiy kamchiliklar mavjud: ta’lim sifati o‘quvchining yashash hududiga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Maktablarda intizom talablari zaif, aniq fanlar yetarli darajada o‘rgatilmaydi, tarbiya va qadriyatlarni shakllantirish masalalari e’tibordan chetda qolib ketgan. Tashqi jihatdan zamonaviy

**Shuhrat
FAYZIYEV**



Shu boisdan ham farzandlarim uchun mustaqil ravishda o'qituvchilar qidira boshladim. Asosan, O'zbekistondan o'qituvchilar izladik. O'z sohasining ustasi bo'lgan, ingliz tilida yaxshi so'zlasha oladigan o'qituvchilar topib, ularga farzandlarimni biriktirdim. Maktabdan so'ng ularni onlayn shaklda turli to'garaklarga jalb qildik. Tez orada farzandlarimiz xulq-atvori, bilim darajasi yaxshi tomonga o'zgara boshladi.

Bu natijalar, o'z navbatida, tevarak-atrofimizdagi boshqa ota-onalarni ham qiziqitirib qo'ydi. O'zbek diasporasi vakillari bo'lgan boshqa tanishlarimiz o'zlarining farzandlari uchun ham o'qituvchilar topib berishimizni, tavsiya etishimizni so'rashdi. Talab va ehtiyojlar kengayib, farzandlarini shu usulda o'qitish istagida bo'lganlar ko'paydi. Shu tarzda "Darstop" loyihasi paydo bo'ldi.

"Darstop" 5 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan puxta ishlab chiqilgan dasturlash, sun'iy intellekt, robototexnika, ingliz tili, madaniy-ma'rifiy tarbiya yo'nalishlarida 3–4 oylik o'quv dasturlarini taklif etadi. Mashg'ulotlar kichik-kichik guruhlarda jonli darslar shaklida o'tkaziladi, uy vazifalari, loyiha ishlari tayyorlanadi. Kurs yakunlangach, ishtirokchilarga sertifikat beriladi.

va qulay sharoitlari bilan jozibali ko'rinsada, ta'limda cheksiz erkinlik bor, ya'ni o'qish yoki o'qimaslik bolaning ixtiyoriga to'liq topshirilgan, majburiyat va mas'uliyat hissi deyarli mavjud emas.

Ota-onalarning bu vaziyatga aralashuvi esa liberal yondashuv sabab cheklangan – hatto tanbeh ham bola huquqlarini buzish sifatida qabul qilinishi mumkin. Natijada bolalar huquqini himoya qiluvchi tuzilmalar orqali ota-onaga qarshi shikoyat qilish holatlari oddiy holga aylangan. Bu esa farzand tarbiyasidagi nazoratsizlikning kuchayishi hamda milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan holatlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi.

Ayni shu jihatlarga menga ma'qul kelmadi. Farzandlarimning milliy qadriyatlardan, ma'naviy-axloqiy tarbiyadan uzoqlashib ketishini istamadim.

Loyihaning asosiy maqsadi – shunchaki "dars o'tib berish" emas, balki bo'shliqlarni aniqlash, shu bilan birga, bolada intizom, mas'uliyat va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini ham kuchaytirishdan iborat. Aynan shu jihatlari bilan loyihamiz boshqa dasturlardan farqlanadi. "Imkon Ventures" "Darstop"ni "raqamli bolalik" davrida barqaror ko'nikmalar va real natijalar beruvchi uzoq muddatli ta'lim infratuzilmasi sifatida e'tirof etgan. Balki shu boisdan ham bu startapimizni qo'llab-quvvatlashni ma'qul ko'rgan bo'lsa kerak.

– G'oyadan startapgacha bo'lgan jarayon qanday kechdi?

– Oson bo'lmadi, albatta. Dastlabki bosqichda Zoom + Telegram/WhatsApp ilovalari orqali ish boshlandi. Besh-o'n nafar o'quvchi, 2–3 ta fan, 1–2 nafar kuchli o'qituvchi bilan faoliyatimizni yo'lga qo'ydik. Har oy natijalar (progress) hisoboti, muntazam nazorat, ota-onalar bilan shaffof,

ochiq va samimiy muloqot orqali natijalar yuksalib bordi. Bilasiz, onlayn ta'lim ko'p, lekin ko'pchiligida tizimlilik va nazorat yo'q, shuning uchun ko'p hollarda natija maqtangulik emas. Bizda esa natijalar tahlili va ularni yanada yaxshilash – eng muhim masala! Men eng yaxshi o'qituvchilarni topib, individual reja + jonli dars + nazorat + hisobot modelini ishlab chiqdim. Shu tarzda loyihamiz ko'lami kengayib bordi, avtomatlashtirishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Ayni paytda o'zimizning platformamizni ishga tushirish arafasidamiz.

– Hozirda loyiha qamrovi qanday?

– Dasturimiz hozircha faqat AQSH bo'ylab faoliyat yuritmoqda. Barcha shtatlardan jami 170 nafar o'quvchimiz bor. Onlayn o'quv markazi sifatida faoliyat olib boramiz, shuning uchun chegaralar yo'q. Platformamiz ishga tushgach, dunyoning istalgan burchagidan o'quvchilar qabul qilinadi. 20 dan ortiq fanlar bo'yicha mashg'ulotlar olib bormoqdamiz. Tez orada oliy o'quv yurtlariga tayyorlov kurslarini ham ishga tushiramiz.

– **“Darstop” loyihasi haqida AQSHning “International business journal” nashrida maqola chop qilingan ekan. Unda loyiha ahamiyati haqida fikr bildirilib: “Loyiha migrant oilalar va global dunyoqarashga ega ota-onalar orasida alohida qiziqish uyg'otmoqda. Ular ta'lim jarayonida bolaning texnik salohiyatini rivojlantirish bilan birga, mustahkam axloqiy asoslarni ham shakllantirishni muhim deb biladilar. Ushbu auditoriyaga Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Sharqiy Yevropa va Lotin Amerikasidan bo'lgan oilalar kiradi. Ular ta'limda akademik yutuqlar bilan bir**

qatorda madaniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga ustuvor ahamiyat beradilar”, deb yozilgan. Nima deb o'ylaysiz, “Darstop” bu e'tirof va ishonchni oqlay oladimi?

– Albatta! Biz kelgusida AQSHda yashovchi nafaqat o'zbekistonlik oilalar, balki farzandlarining ta'lim orqali ham bilim olishlarini, ham madaniy-ma'rifiy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishlarini istaydigan, shunga intiladigan Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridan, balki butun dunyodan kelgan migrantlarning farzandlari uchun ham munosib platforma sifatida faoliyat yuritishni niyat qilganmiz. Hozirda 30 nafarga yaqin malakali o'qituvchilarimiz bor. Nafaqat O'zbekiston, balki boshqa mamlakatlardan ham talablarimizga muvofiq keladigan o'qituvchilarni qabul qilganmiz, misol uchun, filippinlik o'qituvchimiz ham bor. Ularning barchasi o'z faoliyatidan mamnun.

– **“Darstop” loyihasi orqali o'zbek tilini o'rgatish borasida o'ylab ko'rmadingizmi? Chunki xorijga doimiy yashash uchun ketgan o'zbek oilalari farzandlari o'z ona tilini umuman unutishmoqda.**

– Albatta, biz bu haqda anchadan beri o'ylaymiz. O'zbek tilini ingliz tilida o'qita oladigan, shunaqa metodikasi bor o'qituvchilar topish muammosi qiyinayapti. Bu, albatta, oson emas. Ammo tez orada buni ham yo'lga qo'yamiz. Chunki dunyoning qaysi burchagida yashamaylik, o'z tilimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni, umuman olganda, o'zligimizni saqlab qolishimiz juda muhim.

Nodira ABDULLAYEVA suhbatlashdi.

